

Choriyev Bekzod Bahrom o'g'li  
Termiz davlat universiteti  
Musiq ta'limi kafedrasida o'qituvchisi

## O'ZBEK XALQ CHOLG'ULARIDA IJROCHILIK MAHORATI METODOLOGIYASI (G'IJJAK QOBUS BAS CHOLG'USI MISOLIDA)

**Annotatsiya.** Maqolada g'ijjak qobus bas cholg'usining konstruktiv tuzilishi va ijro imkoniyatlari tahlil qilingan. Natijalar musiqa ta'limi tizimida ushbu sozni o'rgatish metodikasini takomillashtirishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** G'ijjak, chang, tanbur, dutor, katta g'ijjak, katta tanbur, katta dutor, g'ijjak qobus bas, registr, shtrixlar.

### МЕТОДОЛОГИЯ ИСПОЛНИТЕЛЬСКОГО МАСТЕРСТВА НА УЗБЕКСКИХ НАРОДНЫХ ИНСТРУМЕНТАХ (НА ПРИМЕРЕ ГИДЖАК КОБУЗ БАСА)

**Аннотация.** В статье анализируются конструктивные характеристики и исполнительские возможности инструмента гиджак кобуз бас. Полученные результаты служат совершенствованию методики обучения игре на данном инструменте в системе музыкального образования.

**Ключевые слова:** Гиджак, чанг, танбур, дутор, большой гиджак, большой танбур, большой дутор, гиджак кобус бас, регистр, штрихи.

### METHODOLOGY OF PERFORMING ARTISTRY ON UZBEK FOLK INSTRUMENTS (ON THE EXAMPLE OF THE G'IJJAK QOBUS BASS)

**Annotation.** The article analyzes the structural characteristics and performance capabilities of the g'ijjak bass instrument. The findings serve to improve the teaching methodology of this instrument within the music education system.

**Key words:** Gizjak, chang, tanbur, dutor, big gizjak, big tanbur, big dutor, gizjak kabus bass, register, strokes.

**Kirish.** O'zbek xalq milliy cholg'ulari juda ulkan musiqiy merosga ega bo'lib, bu cholg'ular xalqimizning moddiy, ma'naviy hamda madaniy boyligi hisoblanadi. O'zbek xalq cholg'ulari zamonaviy ijrochilik talab darajasiga etgunga qadar ko'plab takomillashtirish ishlarini boshdan o'tkazgan. Cholg'uda ijrochilik va cholg'ular takomillashuvi qadimgi davrlardan hozirgi davrgacha davom etib kelmoqda. Bunga misol tariqasida Abu Nasr Farobiyning "Katta musiqa kitobi", Abu Ali Ibn Sinoning "Davolash kitobi", Al-Xorazmiyning "Bilimlar kitobi", Safiuddin Urmaviyning "Oliyjanoblik haqida kitob", Abdurahmon Jomiyning "Musiq haqida risola", Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" kabi asarlarida cholg'u ijrochiligi hamda milliy cholg'ularimiz haqida kerakli manbaalar yozib qoldirilgan.

Milliy cholg'ularimiz faqatgina xona sharoitida ijro qilishga moslashgan bo'lib, ularni sahnalarda ijro qilish tebr jihatidan anchagina sust bo'lgan. Keyinchalik XX asrning boshlarida hofiz Shorahim Shoumarov, sozanda Matyusuf Xarratov, Usta Usmon Zufarov, Usta Ro'zimatxon Isaboyevlar tomonidan cholg'ularimiz yana ham zamonaviy talab darajasida takomillashtirildi. Shorahim Shoumarov tomonidan g'ijjak cholg'usining kosasi turli materiallardan tayyorlangan turlari mavjud bo'lib, ulardan eng afzali hamda qulayi deb kosasi yog'ochdan yasalgan g'ijjak cholg'usi maqsadga muvofiq cholg'u deb topildi. Matyusuf Xarratov diapazoni kichik va diatonik

tovushqatorga ega bo'lgan chang cholg'usiga qo'shimcha torlar qo'shish evaziga cholg'u diapazonini kengaytiradi. Keyinchalik Usta Ro'zimatxon Isaboyev ham 1902-yillarda Qashqardan kelgan Ramazonoxunning chang cholg'usida ijrosidan ilhomlanib o'ziga chang cholg'usini yasaydi va xar bir tovush balandroq eshinishi uchun to'rtadan tor taqadi. Usta Usmon Zufarov esa tanbur, dutor va ruboblarning bir qancha turlarini yasagan. Usta Usmon Zufarov birinchilardan bo'lib, Yunus Rajabiy taklifiga binoan ansambl jamoasi uchun past registrli cholg'ularni ya'ni, katta dutor, katta tanbur, katta g'ijjak cholg'ularini yasaydi. Ular Yunus Rajabiy rahbarligidagi ansamblida cholg'uchilar tomonidan ijro etilgan [1].

1934-yili V.Uspenskiy taklifi bilan ochilgan san'atshunoslik ilmiy tadqiqot instituti qoshida maxsus cholg'ularni takomillashtiradigan tajriba laboratoriyasida usta Usmon Zufarov o'zining bir qancha shogirdlari bilan faoliyat olib boradi. 1936-yilda To'xtasin Jalilov rahbarligida tashkil etilgan 98 nafar sozandadan iborat bo'lgan unison orkestr tarkibida usta Usmon Zufarov yasagan katta tanbur, katta g'ijjak va katta dutorlar sinovdan o'tkaziladi. 1937-yilda Moskvada bo'lib o'tgan o'zbek san'atining birinchi dekadasida Usta Usmon Zufarov tomonidan yasalgan barcha cholg'ular teatr sahnasida yangraydi [2].

**Adabiyotlar sharhi.** Torli-kamonli guruhning tarkibiy qismlarini takomillashtirish hamda ularning simfonik orkestr andozasidagi bas va tenor funksiyalarini ta'minlash masalalari zamonaviy metodik adabiyotlarda (A. Tashmatova, Z.M. Yakubov) va g'arb violonchel ijrochiligi maktabi asoslarida (S. Kalyanov, K. Davidov, J. Klingenberg, D. Popper) o'rganilgan metodologik tamoyillarga tayanadi.

1930-yildan boshlab ko'p ovozli orkestr va ansambllar tuzish maqsadida cholg'ularning oilasini yaratish fikri ilgari surildi. Bu ishlarga Ashot Ivanovich Petrosyans rahbarlik qilgan. Ushbu laboratoriyada A.I.Petrosyans rahbarligi ostida S.Didenko, V.Romanchenko, A.Kevxoyans, X.Muxitdinov, A.Abdug'ofurov, A.Tarasov, V.Shitikov, N.Ryuxin, M.Turdiyev, F.Bortnik kabi musiqiy cholg'u ustalari cholg'ularni modernizatsiyalash ishlarini olib borishgan. Cholg'ularning oilasi yaratilishi bilan bir qatorda torli-chertma cholg'ularga 12 bosqichli teng temperatsiyalangan xromatik tovushqatorlar joriy qilish hamda xromatik chang cholg'usi ustida ilk tajriba ishlari olib borilgan. Ana shunday tajribalar davomida A.I.Petrosyans rahbarligi ostida S.Didenko, V.Romanchenko, A.Kevxoyans, X.Muxitdinov, A.Abdug'ofurov, A.Tarasov, V.Shitikov, N.Ryuxin, M.Turdiyev, F.Bortnik kabi musiqiy cholg'u ustalari tomonidan g'ijjaklar oilasi tarkibiga kiruvchi va xalqchilligini yo'qotmagan kamonli-torli cholg'ular oilasi ham yaratildi [3].

Kamonli-torli cholg'ular oilasiga mansub g'ijjak qobus bas cholg'usi orkestr va ansambllar tarkibida pastki tayanch ovoz registrini egallaydi. Cholg'uning ovoz tarovati va inson ovozigacha o'xshashligi bilan boshqa cholg'ulardan ajralib turadi. G'ijjak qobus bas cholg'usining torlari 1-tori: "Lya" kichik oktavaga, 2-tori "Re" kichik oktavaga, 3-tori "Sol" katta oktavaga, 4-tori "Do" katta oktavaga sozlanadi. Diapozoni katta oktavadagi "Do" notasidan 3-oktavadagi "Re" notasigacha hisoblanadi. Eshinishi yozilganday eshinitiladi va transpozitsiya qilinmaydi. Cholg'uda o'zbek xalq kuylari, milliy kuylar, maqom kuylari, o'zbek kompozitorlari va jahon kompozitorlari tomonidan yaratilgan barcha turdagi hamda janrdagi asarlarni maromiga etkazib ijro etish mumkin. Albatta bular ancha tajriba hamda maxorat talab qiladi [4].

Cholg'uni o'rganish jarayonida talabadan cholg'uga bo'lgan mexri, eshinish qobiliyati va ma'suliyati talab qilinadi. G'ijjak qobus bas cholg'usi 16 ta qismdan tashkil topgan.

### **G'ijjak qobus bas cholg'usining ko'rinishi va tuzilishi**



**1-Rasm:** G'ijjak qobus bas cholg'usining ko'rinishi  
**Kamonning ko'rinishi va tuzilishi**

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu maqolani yozishda ansambl va orkestr san'atining dialektik rivojlanishini xolis baholash maqsadida bir qator kompleks ilmiy metodlardan foydalanildi. Xalq cholg'ularining an'anaviy shakllari va tarixiy ildizlarini saqlagan holda, ularning dinamik va funksional imkoniyatlarini kengaytirish hamda zamonaviy ijrochilik talablariga moslashtirish jarayonlari quyidagi metodologik tamoyillar asosida tahlil qilindi:

1. Tarixiy-qiyosiy va xronologik tahlil metodi: Sharq xalqlari musiqiy madaniyati tarixida cholg'ushunoslik fani rivojiga ulkan hissa qo'shgan buyuk mutafakkirlar – Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Al-Xorazmiy, Safiuddin Urmaviy, Abdurahmon Jomiy va Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarida keltirilgan milliy cholg'ular tizimi XX asrda amalga oshirilgan rekonstruksiya davri bilan qiyosiy o'rganildi. Cholg'ularning xona (kameral) sharoitidan yirik monumental orkestr sahnalarigacha bo'lgan dialektik rivojlanish yo'li xronologik izchillikda yoritildi;


2. Eksperimental-konstruktiv metod: Milliy cholg'ularning akustik va dinamik imkoniyatlarini oshirish maqsadida XX asr boshlarida usta-konstruktorlar va xalq sozandalari tomonidan olib borilgan tajribalar olingan ilmiy natijalar asosida tahlil etildi;

3. Sistemali-strukturaviy yondashuv va cholg'ular oilasini tasniflash (Register qamrovi) metodi: An'anaviy yakkaovozli cholg'ulardan ko'p ovozli simfonik va milliy orkestr andozalarini yaratishda qo'llanilgan guruhlashtirish tizimi tadqiq qilindi. Yunus Rajabiy va V. Uspenskiy tashabbusi bilan past registrdagi muqobillar (katta dutor, katta tanbur, katta g'ijjak) hamda kamonli sozlar guruhining fundamental poydevori bo'lgan g'ijjak qobus bas cholg'usining orkestr tizimidagi funksional vazifasi sistemali tahlilga tortildi;

4. Musiqiy-ijrochilik va applikatura tahlili metodi: G'ijjak qobus bas cholg'usining ijroviy imkoniyatlarini aniqlashda jahon violonchel ijrochiligi maktabi (S. Kalyanov, K. Davidov, J. Klingenberg, D. Popper metodologiyasi) hamda zamonaviy cholg'ushunoslik yo'nalishidagi ilmiy adabiyotlar (A. Tashmatova, Z.M. Yakubov) metodik asos qilib olindi. Cholg'uning kvinta bo'yicha sozlanishi (C, G, D, A), bas, tenor hamda skripka kalitlaridagi diapazon qamrovi hamda ijroda qo'llaniladigan murakkab kamon shtrixlari (detashe, legato, staccato, marcato, martele,

portato, rikoshet, spikkato, tremolo, sotiye, pizzicato) ijrochilik amaliyoti nuqtayi nazaridan tahlil qilindi.

Cholgʻu kamoni orqali ijro etiladi. Kamoni qillari asosan otning sochidan tayyorlanadi yoki sintetik tolalardan foydalaniladi. Kamoni yordamida juda koʻplab shtrixlarni ijro qilsa boʻladi. Shtrixlar kamoni harakatining turli usullari deb ataladi. Ular ijro etilayotgan musiqaning maʼnosini bildiradi va shuning uchun ularni kamoni-torli cholgʻular ijrosida musiqiy ifodaning asosiy vositasi deb hisoblash mumkin. Kamoni orqali Detashe, legato, staccato, marcato, martele, portato, rikoshet, rikoshet salto, col legno, grand detashe, spikkato, tremolo, sotiye kabi shtrixlarni ijroda qoʻllash mumkin. Undan tashqari ijroda pizzicato yaʼni (ital. pizzicato-chimchilash) atamasi ham mavjud va pizzicato ijrosini torlarni oʻng qoʻl barmoqlari orqali chimchilash orqali amalga oshirish mumkin [5].



**2-Rasm:** Kamoni tuzilishi  
Cholgʻuni toʻgʻri ushlab holati




**3-rasm:** Cholgʻuda ijrodan oldingi holat




**4-Rasm:** Cholgʻuda ijro holati

**Kamonni to'g'ri ushlayish holati**

**1-holat**



**2-holat**




**5-rasm:** O'rta barmoqlar kamon ustida egilib turadi va barmoqlar kamonni o'rab oladi.

**6-rasm:** Bosh barmoq kamon-ning blok (kalodka) qismini kichkina barmoq esa vint qismini tayanch sifatida ushlaydi

**Torlarning joylashuvi, diapozoni va harfiy tizimda nomlanishi**


Cholg'uning torlari kvinta orallig'ida sozlanadi. G'ijjak qobus bas cholg'usi uchun orkestr, ansambl partiyalari va kuylarning notalari asosan bas kalitida yoziladi. Yoki ayrim hollarda yuqori registrdagi notalar tenor hamda skripka kalitlarida yozilishi ham mumkin. Uning to'rtta tori kvinta oralig'ida sozlanadi. Cholg'u uchun notalar asosan bas kalitida yuqori registrda gohida tenor va skripka kalitida yoziladi. G'ijjakda qo'llaniladigan barcha zarblar va ijro usullari g'ijjak qobus basda ham ijro etiladi. Uning applikaturasi violonchel cholg'usi kabi bir xildir.



| Torlar | Notasi | Oktavasi      | Harfiy tizimda |
|--------|--------|---------------|----------------|
| 1-Tor  | Lya    | Kichik oktava | "A"            |
| 2-Tor  | Re     | Kichik oktava | "D"            |
| 3-Tor  | Sol    | Katta oktava  | "G"            |
| 4-Tor  | Do     | Katta oktava  | "C"            |

**7-rasm:** Torlarning joylashuvi va harfiy tizimda nomlanishi

G'ijjak qobus bas cholg'usining to'rtta ochiq torlari hamda ularning nota chizig'ida joylashuvi:



**8-rasm:** Cholg'u ochiq torlari hamda diapazonining nota chizig'i bo'ylab joylashuvi  
Kamonli sozlar oilasini tashkil qilish maqsadida konstruktorlarimiz (A.I.Petrosyans, S.E.Didenko) cholg'u asboblarning xalqchillik darajasini saqlab qolgan holda g'ijjak qobus bas sozini yaratganlar.

O'zbek xalq cholg'ulari orkestri kamonli sozlar guruhi simfonik orkestrining kamonli guruhiga ko'p jihatlari bilan o'xshashdir. G'ijjak qobus bas uchun kuylar bas va tenor (1 oktava "do") kalitida yoziladi.

**Muhokama va natijalar.** Olib borilgan rekonstruksiya ishlari natijasida o'zbek xalq cholg'ulari orkestrining akustik va texnik imkoniyatlari simfonik orkestr andozalari darajasiga ko'tarildi. 1930-yillarda yaratilgan katta dutor, katta tanbur, katta g'ijjak hamda kamonli guruhning eng pastki tayanch asosi bo'lgan g'ijjak qobus bas cholg'usi orkestrning bas-akkordli poydevorini tubdan mustahkamladi.

Vazifasi va tembri: Orkestrda boshqaruvchi bas va tenor funksiyasini bajaradi. Ovoz sadosi inson ovozigacha (tembr jihatidan) juda yaqin va shirali;

Sozlanishi va Diapazoni: Torlari kvinta oralig'ida (Iya – re – sol – do) sozlanadi. Tovush ko'lamini katta oktavada do (C) notasidan 3-oktavada sol (g<sup>2</sup>) notasigacha bo'lgan xromatik diapazonni qamrab oladi. Notalari asosan bas kalitida (yuqori registrlarda tenor va skripka kalitlarida) transpozitsiyasiz yoziladi;

Applikaturasi va shtrixlar: Cholg'u applikaturasi va ijro uslubi violonchel ijrochiligi maktabiga tayanadi. Bu sozda detashe, legato, staccato, martele, spikkato, tremolo kabi mukammal kamon shtrixlarini hamda pizzicato usulini to'liq qo'llash imkoni mavjud.

**Xulosa.** O'zbek xalq cholg'ularining XX asrda amalga oshirilgan rekonstruksiya va takomillashuv jarayonlari milliy musiqani kameral ijrochilik doirasidan monumental orkestr darajasiga olib chiqishda asosiy omil bo'ldi. Tadqiqot natijalari asosida quyidagi aniq ilmiy xulosalarga kelindi:

1. Akustik barqarorlik: An'anaviy milliy cholg'ularning xromatiklashtirilishi va past registrli muqobillarining yaratilishi yirik jamoaviy ijroda dinamik va polifonik muvozanatni ta'minladi;

2. G'ijjak qobus basning funksional o'rni: Ushbu cholg'uning kvinta tizimida sozlanishi va keng xromatik diapazoni (C – g<sup>2</sup>) milliy orkestrlarning eng quyi bas-akkord poydevorini va boshqaruvchi tayanch ovozi shakllantirib berdi;

3. Ijroviy universallik: G'ijjak qobus bas cholg'usida violonchel applikaturasi hamda murakkab kamon shtrixlarining (detashe, legato, staccato, spikkato) uyg'unlashishi milliy maqom namunalari bilan bir qatorda yirik shakldagi jahon klassik kompozitorlik asarlarini ham professional darajada ijro etish imkoniyatini yaratdi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. A.Tashmatova "Ijrochilik san'ati tarixi" musiqa oliy ta'lim muassasalari uchun darslik "Musiqa nashriyoti" Toshkent-2017. – 86 bet.

2. Z.M.Yakubov "Cholg'u ijrochiligi" oliy o'quv yurtlarining musiqa ta'lim yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma. Samarqand-2021. – 56 bet.

3. M.Toshmuhamedov – "G'ijjak darsligi". O'qituvchi nashriyoti., Toshkent – 1995. 13 bet.

4. A. Dadamuxamedov. "Rubob prima" darsligi, T., —Musiqa, 2004, 47-bet.

5. S.Kalyanov "Violonchelnaya texnika", "Muzika" nashriyoti. Moskva 1984. 70 bet.

6. Rajabov T. I. Maktabda musiqa ta'limida folklor qo'shiqlarining o'rni. Toshkent davlat pedagogika universiteti. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal. Toshkent 2016 y. 19 aprel. 122-126 betlar.

7. Rajabov D. Z., Rajabov T. I. Formirovanie i razvitie uzbekskoy narodnoy liriki //Международная образовательная деятельность как фактор развития и сотрудничества высших учебных заведений в современном поликультурном мире. – 2018. – S. 207-212.

8. Radjabov T. I. Opisanie vekovyx sennostey v pesne" tutovoe derevo-balx" i yego mesto v vospitanii uchayshesya molodeji //Rossiya-Uzbekistan. Mejdunarodnye obrazovatelnye i sotsialno-kulturnye tehnologii: vektory razvitiya. – 2019. – S. 70-71.

9. Rajabov T. I. Uzluksiz talimda folklor qo'shiqlarini ijro etishning o'ziga xos uslublari //Scientific progress. – 2021. – T. 1. – №. 5.